

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIQ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ARAB FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Arab tilida milliy-madaniy so‘zlarning tahlili

(Arab, o‘zbek tillari misolida)

Annotatsiya-ushbu bitiruv malakaviy ishda arab tiliga xos bo‘lgan milliy va madaniy atamalar, ularning sharhi berilgan bo‘lib, ularni o‘z ona tilimizda asosli holda manolariochib berilgan.

Bajardi: “Arab filologiyasi ”

Kafedra 4-kurs talabasi

Abdurayimov Umidjon _____

Ilmiy rahbar:“Arab filologiyasi” kafedra

kat.o‘qit. Shomaqsudova M.A. _____

HIMOYAGA RUHSAT BERILDI:

Fakultet dekani:

f.f.n., dots. Q.Sh. Omonov

Kafedra mudiri:

kat. o'qit. N.M. Orifxo'jayev

Mundarija:

Kirish	2
I bob. Arab milliy liboslari haqida umumiy ma'lumot	8
1.1. Arab milliy liboslari tarixi (o'zbek milliy liboslari qiyosida) va bosh kiyimlarga oid atamlari.....	8
1. 2. Arab milliy liboslar atamallari.....	21
II bob. Arab milliy taomlari, milliy madaniyati haqida umumiy ma'lumot	30
2.1. Arab milliy taomlar va bayramlarining o'ziga xosligi va milliy madaniyatiga oid atamalar.....	30
2. 2. Arab milliy taomlar atamallari.....	40
Xulosa	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	56
Ilovalar	

Kirish

*Sog'lom xalq – sog'lom millatgina,
Buyuk ishlarga qodir bo'ladi.*

Islom Karimov.

“Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilimli va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishi, bugungi dunyodagi ro'y bergan voqyea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lishi, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz”.¹

Agar dunyoda biror bir muqaddas, abadiy va hayotiy tuyg'u bo'lsa, har bir xalq va millatning ongidir, milliy o'zlikni anglashning birinchi belgisi esa tildir. Har bir insonning ahloqiy madaniy, ma'rifiy va mafkuraviy va ma'naviy saviyasi uning o'z ona tilini qanchalik mukammal bilganligi bilan belgilanadi. Har bir o'quv fani o'ziga tegishli atamalarni o'rgatish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirishi va tushunchalar shaklidagi tafakkurini o'stirganidek, atamashunoslik ham o'ziga taluqli atamalar zahirida o'quvchilar so'z boyligiga tasir o'tkazadi, xususan, milliy va madaniy atamalar, so'zlar bir tilni o'rganayotgan o'rganuvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilm fanning barcha sohalari bo'yicha davr talablariga javob beradigan milliy atamalar tizimini yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga bularni amalga oshirish nihoyatda murakkab, katta kuch talab qiladigan ish ekanligini ham hisobga olish darkor. Rus olimi A.Reformatskiy atamaga ta'rif berar ekan, “...atamalar– bu maxsus so'zlardir” degan xulosaga keladi.²

¹Karimov I A.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 2000.

² Begmatov E. Bektemirov X. O'zbek tili terminologiyasi. T., 2010. B-13.

Har bir mamlakatda milliy va madaniy atamalarga oid ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid atamalarni to'la qamrab olgan atama lug'atlarni, ayniqsa, izohli atama lug'atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug'atlarda har bir atamaning o'zi atayotgan tushunchaning, narsa – hodisaning mohiyatini qay darajada to'g'ri, to'liq va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir atama talabga qanchalik javob berishiyoki javob bermasligi bilan aniqlanadi. Atamashunoslikka oid lug'atlar yaratilgunga qadar atamalogik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq atamining qo'llanishi, yoki aksincha bir necha (boshqa –boshqa) hodisalarni ifodalash uchun bir atamining qo'llanilishi, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq ifodalay olmaydigan atamalarning mavjud bo'lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi. Har bir sohaga oid atamalarni imkoni boricha to'la qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq aks ettiradigan atamalarni belgilaydigan izohli atamalogik lug'atlarni yaratish shu soha mutaxassislarining eng birinchi galdagi vazifalaridandir. Biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda arab tilidagi milliy madaniy atamalar (tor manoda so'zlar) bo'yicha baholi qudrat qo'ldan kelgancha ishlarimizni taqdim qilish niyatidamiz. Bu ishga kirishishdan oldin atama, termin, terminologiya va milliy-madaniy atamalar to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Termin grekcha “terminus” so'zidan olingan bo'lib, o'z mohiyatidan chekchegara degan ma'noni bildiradi. Binobarin, termin chekli, chegaralangan, aniqrog'i – bir ma'noli so'zdir. Vaholanki, odatda so'zlar ko'pincha ko'p ma'noli bo'ladi. So'zlarning ko'p ma'noli bo'lishi tabiiydir. Malumki, har qanday so'z yaratilishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi. Zero, termin ma'no jihatdan aniq bo'lishi, ya'ni tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgilarini aniq ifodalashi kerak. Termin tuzilishi jihatdan ixcham, qisqa va qulay bo'lishi kerak.

So'z ko'chma yoki obrazli (oynaning ko'zi, yog'ochning ko'zi, tizzaning ko'zi, uzuk ko'zi, ishning ko'zi, otalar so'zi aqlning ko'zi) yoki intonatsiya

(“kosmonavtlarimizga balli” ijobiy ma’no bo’lsa, “balli” so’zi kinoya ma’nosida ishlatilishi ham mumkin) ham so’z ma’nosini ham o’zgartiradi. Atama esa cheklanganligi, ya’ni bir ma’noliligi bilan maxsus kontekstda hamma vaqt o’z ma’nosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Hech qanday intonatsiya atama ma’nosini o’zgartira olmaydi.

Atama tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksikadir. Keng ma’noda esa atamashunoslik umumiy lug’at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir.³ Jumladan, har bir tilda bo’lganidek arab tilidagi milliy va madaniy soxadagi atamalar misolida ham ko’rishimiz mumkin. Bunda biz faqatgina o’sha sohaga oid so’zlarni ko’ramiz, misol uchun milliy taomlar: faqatgina malum bir millat yoki xalqqa taalluqli bo’lgan taomlar nomi tushiniladi.

Har qanday atama nafaqat bir xalq leksikasiga mansub bo’lishi bilan birga so’z sifatida tilning boyligi hamdir, balki boshqa tillarga ham ko’chirib o’tkazilishi mumkin. O’z navbatida, u boshqa bir umumxalq tilining boyish uchun xizmat qiladi. Ushbu so’zlar ma’lum millatga oidligi va o’sha millat ichida shakillanganligi tufayli ularni nomlarini o’zgartirishlarsiz boshqa bir tilga olib kiriladi.

Atamalogik leksika (so’z) umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi bo’lib u bilan birga rivojlanadi, uning madniyati, millati, qadiryati, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi.

Filologiya fanlari doktori, G‘.Abdurahmonov shunday yozadi: “Atamalarning aniqligi va qat’iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko’rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarda turlicha bo’lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog’liq. Bu taraqqiyot to’xtovsiz bo’lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo’ladi.⁴ Umuman, tilda atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo’llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham

³ Madarim Hamroyev. Ona tilidan umumiy qo’llanma. T., 2012. B-39.

⁴ S.F Akobirov. Til va terminologiya. T., 1968. B- 56.

zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi".

Mavzuning dolzarbligi.O'zbekistonda arab tiliga, milliy madaniyatiga, milliy qadiryatiga bo'lgan qiziqish ko'p asrlik tarixga ega. Chunki bizning hududimiz arablar istilosi davrida ularning tasarrufida bo'lgan va shu sabali ham arab milliy-madaniy atamalarini bizning ona tilimizda ham uchratishimiz mumkin.Biroq ularni ma'lum guruhlariga bo'lgan holda o'zbek tilida sharxlash masalasiga katta e'tibor berilmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ish orqali arab milliy-madaniy atamalarni kengroq yoritib berish va ularni o'zbek tilida xuddi o'z nomi bilan atash kerakligini ko'rsatib berish lozim. Chunki har bir millat o'zining madaniyati urf odati milliyligidan kelib chiqib har xil sohaga oid atamalarni yaratadi va biz bu atamalarni to'g'ridan to'g'ri barchasiga ekvivalent topib o'z ona tilimizga tarjima qila olmaymiz.Shuning uchun ham ularni o'z nomi ostida sharxlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi.Ma'lumki,umuman atamashunoslikning turli jihatlarini yoritishga doir anchagina izlanishlar rossiyalik va chet ellik bir qator olimlar ish olib borishgan. Shunday atamashunos olimlarga N.Dmitriev, N.Baskakov, A.Reformatskiy, V.Danilenko, N.Mamatov, S.Ibrohimov, M.Abdiev va boshqalarni qo'shish mumkin. Lekin arab atamashunosligi bilan O'zbekistonda faqatgina o'zbek arabshunoslaridan biri Z.Oripov shug'ullangan bo'lib, uning "Ibn Zaylaning "kitabi fi musiqa" asaridagi musiqaga oid atamalariga sharx" asarini yozgan dissertatsiya ishi bilan ushbu malakaviy ishni yozishda tanishdik. Bu dissertatsiya ishida musiqa asboblari nomlariningkelib chiqishi arablarga bog'langan holda yoritib berilgan.Bundan tashqari X.K Baranoning "Arabskiy-ruskiy slovar"yoki o'zbek tilidagi O.Nosirov.M.Yusupovlarning "An-naim "kabi lug'atlarida qisqa holda asl arab atamariga izoh berilgan.Biroq o'zbek tili leksikalogiyasida faqat arablargagina taalluqli bo'lgan atamalar yuzasidan alohida kitob nashr etilmagan ularni turli kitoblar ichiga tarkibiy qism sifatida kiritib ketilgan.

Tadqiqot maqsadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 12 dekabr kungi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵gi qarori qabul qilingan edi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillar o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘unkamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi. Yuqoridagi qarorning bugungi kunda amalga oshirilayotganligini va chet tilini o‘qitishga katta ahamiyat berilayotganligini hisobga olib, biz yoshlar mamlakatimiz rivoji va ravnaqiga o‘z ona tilimiz qiyosida boshqa tillarni mukammal egallab hissamizni qo‘shishimiz kerak. Jumaladan, men ham ushbu bitiruv malakaviy ishm orqali o‘zbek va arab tillarida arab tilidagi milliy va madaniy atamalarni⁶ tahlil qilgan holda tushunilishi qiyin yoki ommaviy bo‘lmagan asl arab milliy atamarini kengroq yoritib berishni o‘z oldinga maqsad qilib qo‘ydim.

Shu bilan birgalikdailmiy tadqiqotda quyidagi vazifalar amalga oshirildi.

- Arab va o‘zbek tilidagi milliy va madaniy atamalar haqida umumiy malumot berish;
- Arab tilida milliy va madaniy atamalarni guruhlar bo‘yicha taqsimlash;
- Arab va o‘zbek tillarida milliy va madaniy atamalarni qiyoslash;
- Arab tilidagi milliy atamalarni o‘zbek tilida kengroq yoritib berish.

Ishning predmeti va ob‘yekti. Ushbu bitiruv malakaviy ishda turli xil manbalardan foydaklanildi. Jumladan, nafaqat o‘zbek yoki arab tiliga oid

⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1875 qarori.

⁶Izoh:

Shuo‘rindakengma‘nodabo‘lishinimaqsadqilib,milliyvamadaniyso‘zlaro‘rnigashartliravishdamilliyvamadaniyatamal ardebtakidlashnilozimtopdim.

manbalardan balki ingliz tilidagi bir qator manbalardan ham o'rinli foydalanishga harakat qildik. Misol uchun o'zbek tilidagi adabiyotlar sifatida O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2006. Arab mamlakatlari tarixi. Qodirov. Z.M. T, 2010 kitoblari asosiy manba qilib olindi. Ingliz tilidagilarga esa Nabeel Y. Abraham. "Arab Americans," Encarta Encyclopedia 2007, "المعاني لكل رسم معنى" university of oslo; kabilardan unumli foydalanishga harakat qildik. Shuningdek ushbu bitiruv malakaviy ishimizning asosiy o'rganilishi lozim bo'lgan ob'yekti - arab tiliga xos bo'lgan milliy va madaniy atamaları va ularning sharxi, ularni o'z ona tilimizda asosli holda manolarini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat. Keltirilgan boblar o'z ahamiyatidan kelib chiqib to'rt bo'limdan iboratdir.

I bob. Arab milliy-madaniy so'zlari haqida umumiy ma'lumot

Arab milliy liboslari tarixi (o'zbek milliy liboslari qiyosida) va bosh kiyimlarga oid atamlari. Kiyim inson yaratgan turar joy kabi eng qadimiy ixtirolardan biri bo'lib, so'nggi paleolit davridayoq mavjud bo'lgan. Kiyim geografik muhit, xo'jalik shakli, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, etnik qatlamlar va boshqalarga bog'liq holda taraqqiy etgan. Paleolit davri yodgorliklari orasida terini ishlaydigan tosh va tikadigan suyak ignalar topilgan. Kiyim uchun matodan tashqari barglar, o'tlar, daraxt po'stloqlari ham xom ashyo vazifasini o'tagan. Ibtidoiy odamlar hayvon terilari, daraxt po'stloqlari va barglarini suyak va hayvon shoxidan ishlangan «ignalar» bilan shunchaki chatib, badanlariga «ilib» olishgan. Neolit davrida ip yigirish va mato to'qish san'atini o'zlashtirgan inson kiyim tikishda dastlab yovvoyi o'simlik tolalaridan foydalangan, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi mato tayyorlash uchun uy hayvonlarining jini va madaniy o'simliklarning tolalaridan foydalanish imkonini berdi. Barcha kiyim turlari 2 boshlang'ich ko'rinishdan — yelkaga tashlab qo'yiladigan teri, o't, barg va parlardan to'qilgan yopqich va bel(boksa) bog'lamlari (belbog') dan rivojlanib shakllangan. Keyinchalik yopqichlar yopinchiq(plashch), ko'ylak, kaftan kabi, bel bog'lamlari ishton, yubka, fartuk kabi turli xil shakllarga ega bo'ldi; shippak yoki oyoqni o'rab turgan bir parcha hayvon terisi eng sodda qadimiy poyabzal turi bo'lgan, shuningdek, poyabzal uchun daraxt po'stlog'i va daraxtdan ham foydalanilgan. Estetik xususiyatlarga ega dastlabki kiyimlar Qadimgi Misr kiyimlaridir. Qadimgi Misrda erkaklar (bellariga mato yoki teri bog'lagan) va ayollar (bog'ichli to'g'ri ko'ylak) kiyimlarida burma (drapiroverka)lar qo'llanilgan; keyinroq nozik mato ishlab chiqarishga erishilgach, plissirovka keng tarqalgan. Turli rangdagi nozik matodan tayyorlanib kashtalar bilan bezatilgan kiyimni, odatda, hukmron tabaqa vakillari kiygan, qullar dag'al mato yoki teridan tayyorlangan kiyim kiygan. Qadimgi ossuriyaliklarda uzun ko'ylak va hoshiya

bezakli yopinchiq rasm bo'lgan. Yunonlar xiton (yengeiz ko'ylak), tunika (kalta yengli ko'ylak), gimatiy (yopinchiq) kiyishgan, bu kiyimlarlar inson qiyofasiga ulug'vor soddalik baxsh etgan, inson tanasining egiluvchanligini kursatgan (ular, asosan, oq jun va kanop matolardan tayyorlangan), to'g'nog'ich, belbog' va boshqalar boyitilgan. Oyoq kiyim vazifasini boldirni o'rab turadigan tasmali shippaklar bajargan. Qadimgi arab kiyimlar ham yunonlarniki kabi burmali bo'lgan. Erkaklarning asosiy ustki kiyimlari tog'a (yarim aylana yoki ovalshaklidagi mato bo'lagi) bo'lgan. Erkak va ayollarning ichki kiyimlari vazifasini tunika bajargan, ayollar uning ustidan stola(xiton ko'rinishidagi keng uzun kiyimlar) va palla (gimatiyga o'xshash) kiyishgan. Arab diniy tarkidunyochilik ta'sirida kiyimlar qat'iy, qomatni yashirib turadigan shaklga ega bo'lib, mato (parcha, shoyi) qalin, og'ir, yirik gulli bo'lgan. XIV asrlarda G'arbiy Yevropada chizmachilik ilmining taraqqiyoti hozirga qadar mavjud bo'lgan andazalarning barcha turlarini yaratilishini ta'minladi, matolarning nafisligi, iplarining joylashishi bichishni mukam-mallashtirdi. Bu yutuqlar kiyimni aniq loyihalash va qomatga mos nafis kiyimning paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xalqlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning kengayishi kiyim bichimlari bir mamlakatdan ikkinchisiga tarqalgan. Sharqda tayyorlangan zarboft, kimxob to'nlar, zardo'zi telpak va boshqa buyumlarni juda qadrlashgan, masalan Monomax telpagi. XIV asrlarda arab kiyimlari taraqqiyotiga ma'lum darajada me'morlik va tasviriy san'atdagi uslublar ta'sir etgan.

XX asrlarda texnika taraqqiyoti va unga bog'liq holda o'zgargan hayot tarzi, tikuvchilik sanoatining o'sishi arab milliy kiyim tarixida yangi davrni ochib berdi, avtomobil va mototsiklda yurishning keng tarqalishi tufayli erkaklar kiyimlarida o'zgarishlar ro'y berdi: kalta shim, kurtka, rangli ko'ylak, bosh kiyimlar — keplar paydo bo'ldi. XX asrlardan erkaklar yagona bichimdagi kiyim kiya boshladi. 1950-yillardan erkin harakatga qulay bo'lgan kiyimlar yuzaga keldi,

ancha yengil va shaklan nafis kiyimlar yaratildi, yenglari yaxlit bichimli ko‘ylaklar, pochasi tor shimlar paydo bo‘ldi.

Bizga ma’lumki asrlar davomida ma’lum bir xalqni madaniyati, turmush tarzi, kiyimlari, yoki millat bo‘lib shakllanishi uchun barcha o‘ziga xos xususiyatlar rivoj topmog‘i kerak. Jumladan, milliy liboslar haqida gap borar ekan, buni bir millatga taalluqli bo‘lgan kiyinish madaniyati deya olishimiz mumkin. Uning kelib chiqishi bugun yoki kecha shakllanib qolmagan unga asrlar o‘z tasirini o‘tkazgan⁷. Bunga ham bir qancha omillar bor.

Bular quyidagilar:

- Ma’lum bir xalqning qaysi hududda istiqomat qilishi;
- Yashab turgan joydagi iqlim sharoiti;
- Jamiyatdagi qonun qoidalar;
- Diniy yoki e’tiqodiy nuqtayi nazardan insonlarning qarashlari;
- Asrlar davomida shakllangan madaniyat;

Arab milliy liboslari haqida fikr yuritar ekanmiz yuqoridagi milliy kiyimlarning paydo bo‘lish omillarini barchasini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, qadim qadimdan arablar xalq bo‘lib shakllangan vaqtlardan buyon ularning aksariyat qismi dengiz, turli xil daryolar tutashgan joylarda istiqomat qilishgan. Bundan tashqari ular yashaydigan hududning ko‘pgina qismini sahro zonalari tashkil etgan bo‘lib, tabiiyki, ularning kiyinish madaniyatiga bular ta’sir etmay qolmagan.

-Iqlim sharoiti jihatidan arabiston mamlakatlari ekvator chizig‘iga yaqin bo‘lgan mintaqada joylashgan va o‘z o‘zidan harorat yilning deyarli barcha vaqtlarida o‘zining yuqori darajasidan pastga tushmaydi, bu esa istiqomat

⁷O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi .2006.T., B- 234.

qiluvchilar uchun yengil, yupqa jazirama issiqdan kishilarni himoya qila oladidan matolardan liboslarni kiyish kerakligini taqazo etadi.

- Barchamizga malumki jamiyat shakllanar ekan undagi tartib qoidalar barcha sohada amalga oshiriladi shu jumladan ma'lum kiyimlarni ham joriy qilinadi. Misol uchun rasmiy marosimlarda butun dunyoda erkaklar va ayollar uchun kastyum–shim kiyib yurish majburiy etib belgilanmagan chunki arab mamakatlaridida ushbu kiyim turini kiyib yurishga issiq qiyinchiliklar tug'diradi va ular rasmiy va ommaviy kiyimlarni alohida o'z sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilashlari mumkin.

- Ma'lumki VI-VII asrlar davomida jahon sahnasida yangi din vujudga kelishi bilan belgilanadi bu – islmon dinidir. Ushbu din arab olamida paydo bo'ldi payg'ambarimiz Muhammad (s,a,v) boshchiligida butun dunyoga yoyildi va ushbu din nafaqat diniy yo'nalishda balki inson borlig'ining barcha sohasida o'ziga xos qonun qoidalarni belgilab berdi. Jumladan,kiyinish borasida ham.Islom dini krib kelishi nafaqat arablarning kiyinish madaniyatiga,balki butun musulmonlar uchun o'zning muqaddas kitobida belgilab berildi.Qur'oni karimning Najm –sursi 53 oyatida shunday deyiladi : “Qachonki, sizlar ulardan (payg'ambar ayollaridan) biror narsa so'rasangizlar, parda ortidan so'rangizlar!”.

Shuningdek arablar alohida kunlarda ham diniy nuqtai nazardan kiyinadilar. Masaln “Juma” (arabchada – jamlik, jam bo'lish degan ma'nolarni anglatadi) –musulmonlarning dam olish kuni. Musulmonlar namozgohda peshinni o'qish va xutba (arabchada – targ'ibot, nutq degan ma'nolarni anglatadi) eshitish uchun to'planadilar. Odamlar bu kunda bayramona liboslarini kiyadilar, mazali taomlar tayyorlaydilar, mehmondorchilikka boradilar.

Arablarda sig'inish turli xatti-harakatlar, xulq-atvorlar bilan birga moddiy hodisalarni ham o'z ichiga oladi.Sig'inishning muhim xususiyati hissiy ramziy obrazlarda ifodalanishidir.Sig'inish tarkibiga turli udumlar, an'analar, qurbonliklar, duolar, o'zini hayot ne'matlaridan cheklash (jumladan, ro'za tutish) kabilar

kiradi. Sig'inish u yoki bu predmetni ilohiylashtirish (masalan, Ka'badagi qora tosh, ayrim daraxtlar, muqaddas qabrlar, qadamjolar) vositasida amalga oshiriladi. Sig'inishda turli tumorlar, tasbeh, diniy liboslar ham muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi birgalikda sig'inishga hissiy-ramziy obraz tusini beradi va kishining ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Sig'inishning alohida ahamiyati shundaki, kishi o'z hayotining ma'nosini eng oliy qadriyat – narigi dunyoda erishadigan lazzat va farovonlik bilan bog'laydi, bu dunyodagi hayotining o'tkinchi ekanligiga, o'zining qandaydir tashqi qudratli kuch tomonidan idora etilishiga ishonadi. Arablarda dinda mistik va tarkidunyochilik g'oyasiga asoslangan so'fizm oqimi ham mavjud bo'lib, u taxminan VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Uning keng yoyilishi XI asrga to'g'ri keladi. So'fizmning (arabchada – jun, qo'pol jun kiyim, jun kiyim kiyib yuruvchi degan ma'nolarni anglatadi) asosiy g'oyasi barcha musulmonlarning Oloh oldida tengligi to'g'risidagi aqidaga asoslanadi. So'fiylar odamlarni halol pok bo'lishga, kasb hunar egallab o'z mehnati bilan yashashga, boshqalarning mehnatidan foydalanmaslikka, tenglik va ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishga da'vat etadilar.

Mo'minaayollarnikofiryokijoxiliyatdavridagimushrikayollardanajratibturadigan o'zigaxosguzal ahloqibor. Musulmonayolning ahloqi yomonlikdan o'zinimuxofaza qilish, extiromli, iffatlivaxayolibolmoqliklir.

Zamaxshariy shunlay deytilar: "Ochiq-sochiq yurishlik yashirin tutilishi kerak bulgan joylarni bilgan xolda kasddan ochmoqliklir". Mazkur ifodani ayollar uchun qo'llaydigan bo'lsak, bu xol ularning yashirin bulgan ziynatlarini ochishliklarini anglatadi. Shu tariqa Imom Zamaxshariy, yashirin tutilishi lozim bulgan ziynatni ochishlik, Musulmonayoldaochiq-sochiq hisoblanmaydiganIslomodobidebatalganvaayolningamal qilishikerakbo'lganodob quyidagitarzddadir:

Xaromgaqarshiqarashlikdantiyilish. Ayollarningeng qimmatlivaenggo'zalziynatixayodir.AlloxtaoloxaqkitobiQur'oniKarimdamarxamatq

iladiki: "Mo'minalarga xam ayting, ko'zlarini (nomaxram erkaklarga tikishdan) to'ssinlar". (Nursurasi-31).

BuxususdaMu'kal

ibnYasnrningpaygambarimizsallalloxualayxivassalomdankeltirilganxadisiibratberg uvchidir:

Kiyim-kechakningIslomodobigamosbo'lishi,

islomodobigamosdegandashunitushunishlozim:

Kiyim, Qur'onistisnoetganyuzva qo'llardanboshqabutunvujudni to'sshikerak.

Badanni kursatadigan darajada yupqa va shaffof bo'lmasligi kerak. Rasulullox sallalloxu alayxi vassalom marxamat qilganlarki: "Jaxannamahlidanbo'lganba'ziayollarborkikiyinganlarixoldayalongochdirlar. Har yongasollanadilar.Bularjannatgakirolmaydilarvajannatningxushbuy hididan hambaxramandbo'laolmaydilar.

O'zbeklarning milliy kiyimlari ham ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, an'anaviy turmush tarzi, tabiiy-geografik muhit va xo'jalik madaniy an'analar bilan bog'liq bo'lgan. O'zbeklarda asosiy milliy kiyimlar: erkaklarda oq yoki malla bo'zdan tikilgan ko'ylak, yaktak, to'n, belbog', salla, maxsi, kavush, etik; ayollarda — **ro'mol**, keng ko'ylak, uzun lozim, nimcha, kaltacha, maxsi, kavush. Bosh kiyimlardan — do'ppi, kuloh, islomiyat davridan boshlab uning ustidan salla o'ralgan, aslzodalarning bosh kiyimlari zarli va kumushiplar bilan bezatilgan, peshona qismiga turli olmos, qimmatbaho toshlardan yasalgan to'g'nog'ichlar qadalgan. Qish faslida kuloh yoki badavlat kishilar mo'ynali telpaklar kiyishgan. O'zbeklar orasida eng ko'p tarqalgan yengil bosh kiyimi do'ppidir.⁸

O'zbek milliy liboslari bo'yicha atamalar ham asrlar davomida shakllanib o'ziga xos nomlar ostida milliy so'zlar, milliy liboslar nomi bilan ma'lum va

⁸Ozbekiston Milliy ensiklopediya. Milliy kiyimlar bobi.-T., 2006. B-334

mashxur .Shu o' rinda nima uchun aynan o'zbek milliy liboslari nomi bilan ataymiz degan savol tug'ilishi tabiiy hol.Sababi, ushbu liboslar faqat o'zbek millatining turmush tarzidan, kundalik hayotidan kelib chiqib ma'lum vaqt davomida shakllangan biz bularni boshqa mamlakatlardagi milliy atamalari bilan alamashтира olmaymiz.Xususan, biz ko'rib o'tgan arab milliy liboslari va o'zbek milliy liboslari o'rtasida ham katta farqlar bor masalan quyida ba'zi misollar keltirib o'tmoqchiman.

Mahalliy aholining o'zga xos kiyim-kechagi qadimdan iqlimi, uy-rozg'or sharoiti, urug'-aymoqlari urf-odatları bo'yicha aniqlangan. XIX asrdayoq kiyim-kechaklar (xalatlar, ko'ylaklar va erkaklar ko'ylaklari): keng va uzun bichilgan, elkadan tushmaydigan, qaddi-qomatni yashirib turadigan barcha belgilar saqlanib kelingan.

An'anaviy erkaklarning milliy kiyimlari qiyiqcha bilan bog'langan qavilgan issiq cho'ponlardan, bosh kiyimi-do'ppidan va nozik charmdan yasatilgan etiklardan iborat. Erkaklar tekis andazali ichki va tashki ko'ylaklarni kiyganlar. Cho'ponlarning yengil yoki paxtada qavilgan issiq turlari mavjud. Urishda va erga o'tirishda qulay bo'lishi uchun cho'ponlarning yon tomonlarida kesimlar bo'lgan. Odatda cho'pon qiyiqcha bilan bog'langan bo'lar edi. Milliy bayram ko'ylaklari qo'llanilgan matolarning va kashtalarning chiroyi va boyligidan kundalik ko'ylaklardan ajralib turadi.

Ayollarning milliy kiyimlari xalat, xon-atlasdan tikilgan oddiy bichimli ko'ylaklar, lozimlar – pastki qismi tor bo'lgan keng yupqa shimdan iborat. Ayollarning bosh kiyimi asosiy uch belgidan iborat: shapkacha, ro'mol va do'ppi. Ayollarning bayram ko'ylaklari matolarning to'kilib turishidan va chiroyidan ajralib turadi. Bolalar kiyimlari kattalarning kiyim shakllarini takrorlab kelgan. umumiy belgilar bilan bir qatorda har bir tuman va qabilaning kiyimlari o'zga hos hususiyatga, ishlatililishda ifodalaydigan mato, shakl va andazalarga ega.

Arab milliy kiyim va liboslari esa biz ta'kidlab o'yganizdek ularning iqlim sharoitidan asosan quruq , yilning barcha oylarida haroratning yuqori bo'lishi ham

bunga ta'sir etmay qolmagan. Oddiygina misol, do'ppi ko'rinishi va tuzilishini o'zaro o'zbek milliy do'ppisi turli xil naqsh bezaklar bilan bezatilgan.



O'zbekistonning taniqli va keng tarqalgan xalq san'atidan biri Do'ppido'zlikdir. Do'ppi - bosh kiyimi hisoblanib, astarli yumshoq



matolardan tikilgan. Do'ppi o'zbek milliy kiyim-boshining ajralmas qismi bo'lib, o'zbek millatining o'z milliy an'ana va urf-odatlariga kirdi. O'zbek do'ppisining keng tarqalgan shakllaridan: to'rtqirrali va konussimonidir. Do'ppilar uchun oq surp, oq ipakli ip, jiyak, tepchish uchun oddiy ipdan tayyorlanadi.⁹

Aksariyat ayollar do'ppido'zlik sirlarini mohirlik bilan egallaganlar. Do'ppilarni bezashda xayot va hosildorlik ramzi bo'lgan "bodom" ko'p uchraydigan bodom belgisida gul solish turlariga kiradi. Do'ppilar ichida keng tarqalgan turi asrash vazifasini bajaruvchi "ilon izi" naqshi hisoblanadi. Geometrik naqshlar yanada taniqliroq naqshlar bo'lgan. Turli tumanlarda yaratilgan do'ppilar, o'z shakli, turi va gul tushirish ayollari bilan ajralib turadi. O'zbekistonning ko'p hududlarida "Chust do'ppi"lari keng tarqalgan. Do'ppining gullarida- Chust do'ppilari tepa va yon qismidagi gullari qalampir suratida bo'ladi.

Yuqoridagi rasmda ikki mamlakatning milliy do'ppilari namoyon bo'lgan bo'lib, agarda biz yuqoridagi arab bosh kiyimini, ya'ni "to'qiyatun" nomi bilan ataladigan, biron bir tarjima sanatida yoki lug'atlarda do'ppi deya tarjima qilsak unda bizning milliy bosh kiyimimiz bo'lmish "do'ppi"ni qay nom bilan ataymiz! Ko'rib turganimizdek ularning o'rtasida katta farq bor. Shuning uchun ham bizning atamashunoslik deya atalmish sohamiz shunga o'xshash ko'plab milliy

⁹National uzbek clothes .Toshkent. Nafisa Sodiqova.2013.

so'zlarni alohida sharxlar asosida izohli lugatlarda atashmasa, xar bir millatning milliyliigi yoki o'zligini namoyon qiladigan atamalari bir biri bilan qorishib ketadi.

Yoki bo'lmasam milliy taomlarga to'xtalsak ularning tayyorlanish usuli va uslublarida ham farqlar talaygina. O'zbeklarning taom tayyorlash an'anasi va madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, milliy taomlarni tayyorlashda azaldan turli xil go'sht, o'simlik mahsulotlaridan keng foydalanganlar. O'zbeklar kundalik ovqat sifatida bug'doy, arpa, guruch, no'xat, mosh, zig'ir, kunjut kabi don, sabzi, piyoz, sholg'om kabi sabzavotlar, qovun, tarvuz kabi poliz mahsulotlarini keng iste'mol qilganlar. Azaldan milliy taomlarni tayyorlash uchun chorva — qo'y, qoramol, echki yog'lari, kunjut, zig'ir va sariyog' (sut mahsulotlaridan olingan), paxta yog'i ishlatilib kelinadi. Ovqatlanishda, ayniqsa shaharliklarning asosiy taomlari sut mahsulotlaridan: qatiq, suzma, tvorog yoki chakki (zardobi olingan qatiq), qaymoq va boshqalardan iborat. Taomga juda ko'p zira va zirk ishlatiladi. Go'shtli, sabzavot va yormali quyuq taomlar za'faron, kashnich qo'shib tayyorlanadi. Umuman, o'zbek milliy taomlari o'zining lazzatliliigi, kaloriyaliligi va servitaminligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, palov, norin, sho'rva, kabob, mastava, shavla, moshxo'rda, moshkichiri, chuchvara, shilpildoq va boshqalar keng tarqalgan. Ba'zi quyuq taomlar (palov) tayyorlashning o'nlab usullari mavjud. Norin tayyorlash ham o'zbek pazandachiligida alohida o'rin tutadi. Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida non yopishda kunjut, arpabodiyon, sedanani keng qo'llaydilar. Shu o'rinda biz ushbu bitiruv malakaviy ishimiz orqali buning II bobidagi arab milliy taomlarining o'ziga xos xususiyatini keltirib o'dik va bunda biz ikki mamlakatning taomlari orasidagi farqni yaqqol ko'ra olamiz.

Shu o'rinda barcha mamlakatlarning o'ziga xos milliy taomlari mavjuddir va ularning paydo bo'lishi ham o'ziga yarasha tarixga egadir. Misol uchun agarda biz bugun ushbu tamalarning qay darajada to'g'ri yoritilganiga e'tibor bermasak bizning milliy atamalarimiz nima bilan tugaydi! O'zbek tilining milliy leksikasining tashqi, chetdan so'z olib boyitish usullari qayga ketagdi! Hech qachon chet ellik kelib bizning milliy taomlarimizni o'zining mamlakatidagi taom nomi

bilan atamaydiku! Albatta uning nomini bizdan so'raydi, o'rganadi, va o'z yurtiga borganda ushu milliy atamamizni qo'llaydi, balki, uni keng iste'molga olib chiqar. Biz ham ularning huddi shunday milliy atamalariga diqqat bilan e'tibor berib o'zbek tilining so'z boyligini ko'paytira olishimiz mumkin. Buning uchun esa izohli atamalarga oid lu'gatlar kerak.

Demak, ko'rinib turibdiki yuqoridagi omillar orqali biz arab xalqining milliy kiyimlari qanday ta'sirlar orqali bugungi ko'rinishga kelganligini bilib olishimiz mumkin. Bitiruv malakaviy ishimizda arab xalqlarining milliy kiyimlariga oid atamalarni keltirib, sharxlab o'tdik. Bunda arab va o'zbek tillarida bir birini to'ldirgan holda ma'lumotlar to'plab ularni bitiruv malakaviy ishingga kiritdim, zero iloji boricha ularning milliy madaniy atamalarini kengroq o'rganish, kengroq ochib berish maqsadi bilan bu ishga qo'l urdik. Quyida Arab milliy bosh kiyimlariga oid atamalar keltirilgan.

الطاقية تسمية متأخرة قد وردت في القرن السادس الهجري عند الرحالة الأندلسي أبي حامد الغرناطي، ووردت في القرن الثامن عند ابن بطوطة، وهي كلمة عامية مولدة، وهي غطاء الرأس من الصوف أو القطن ونحوها. والطاقية التي توضع تحت العمامة، وهي شقة البز، وهي مرادفة لكلمة طربوش، وهناك أدلة تؤكد أن بعض المسلمين كانوا يلبسون غالباً طاقيتين أو كلوتتين: طاقية وطربوش، فيقول ابن بطوطة: فإذا استقر بهم المجلس نزع كل واحد قلنسوته ووضعها بين يديه، وتبقى على رأسه قلنسوة أخرى من الزردخاني، وقد كان الرومانيون في مدينة لاذق يميزون بالقلانس الطوال، منها الحمر والبيض. وكانت قلنسوة الأتراك طويلة محددة الرأس¹⁰.

طاقية arabcha so'z bo'lib qisqa aylana shaklidagi bosh kiymi hisoblnadi. Ushbu bosh kiymi asosan musulmon erkaklar tomonidan diniy maqsadlarda kiyilad. Bu bosh kiymi arab mamlakatlarida keng tarqalagan. Chunki payg'ambar Muhammad (s,a,v) uni mustahab sifatida qoldirgan, shuning uchun ham musulmonlar unga taqlid qilish uchun bajargan amallarini qiladilar. Bundan

¹⁰Hova 11.

tashqari, musulmonlar uni har kuni besh vaqt namoz davomida kiyib ibodat qiladilar. Bu bosh kiyimi istalgan rangda bo'lishi mumkin. Lekin ko'pchilik musulmon erkaklar uni "kefiyyah" bosh kiyimi ostidan ham kiyib yurishadi. Shuningdek, an'anani saqlab qolishlari uchun asosan oq rangda bo'ladi. Taqiyyat asl arabcha so'z bolib Saudiyada ham huddi shu so'z bilan ifodalashadi. Pokiston va Hindistonda uni kiyibyuruvchilat "Topi" deb atashadi

الكوفية أيضاً تعرف بالغترة, الشماع, حطة, مشدة, غترة, قضاضة هي لباس للرأس يتكون من قطعة قماشية تصنع بالعادة من القطن أو كتان ومزخرفة بالوان عديدة أشهرها اللون الأحمر والأبيض والأسود والأبيض، مربعة الشكل ويتم ثنيها على الغالب بشكل مثلث وتوضع على الرأس.

وردت كلمة يشماغ في اللغة السومرية والتي هي في الأصل مقطعين هما: اش ماخ: تعني غطاء الرأس^[1] يعتقد باحثون في الملابس التقليدية للشعوب بان النمط المستخدم في توزيع الألوان (الأحمر والأبيض) أو غيرهما يعود إلى حضارات ما بين النهرين القديمة ويعتقد أنها هذه الانماط اللونية قد استخدمت محاكاة لشبكات صيد السمك أو إلى سنبله القمح والحنطة.¹¹

: arabcha so'z bo'lb, asli Kufa shaxri so'zidan olinggan. Uning ko'plik shakli "kuufiyat". Bundan tashqari, uning ekvivalentlari quyidagilardir: "g'utrat (غُتْرَة), shumag' (شماغ), ḥaṭṭah (حَطَّة), mashaddat (مَشْدَة), chafiye (forsiyda: جَفِيَه). O'rta sharq mamlakatlarining milliy bosh kiyimi hisoblanib, asosan to'rt burchak paxtali matodan tayyorlanadi. Ushbu bosh kiyimi arablar va kurdlar tomonidan kiyiladi. Bu kiyim quruq iqlim sharoitida quyosh nurlaridan va har xil chang qumlardan himoya qilish vositasini o'taydi. Uning asl kelib chiqishi qadimgi Mesopatamiyaga borib taqaladi. Biroq uning aniq qaysi hududda paydo bo'lgani ma'lum emas. 1960 yildan boshlab bu kiyimni Falastinliklarning milliy kiyimi sifatida kiyish udum bo'gan. Falastin hukumati sobiq rahbari Yosir Arofat uni mamlakatning ramziy belgisi sifatida qabul qilgan. 1980 yillarning oxirlarida

¹¹Illova 3.

ushbu libos Amerika Shtatlarida ham rusumda bo'lgan. Bundan tashqari kufiyyat Tokiyodagi yoshlar o'rtasida ham mashhurdir.¹²

الطربوش، هو غطاء للرأس كالقبعة حمراء اللون أو من مشتقات اللون الأحمر بين الأحمر الفاتح والأحمر الغامق أو أبيض اللون وهو على شكل مخروط ناقص تتدلى من الجانب الخلفي حزمة من الخيوط الحريرية السوداء.

نشأ الطربوش في المغرب تم انتقال إلى الامبراطورية العثمانية، يتم لباسه بكثرة في المغرب الأقصى.

يعتبر استخدامه حالياً مقصوراً على مناطق محدودة وعلى بعض الأشخاص وربما رجال الدين الذين يضيفوا العمة البيضاء أو الملونة السادة أو المنقوشة حول الطربوش.

هناك نوعان من الطرابيش بعضها تصنع من الصوف المضغوط (اللباد) أو من الجوخ الملبس على قاعدة من القش أو الخوص المحاك على شكل مخروط ناقص.

وقد يختلف شكل الطربوش ومقاسه من بلد إلى آخر، ففي سوريا ولبنان وفلسطين كان طويلاً وأشد احمراراً منه في تركيا، وقد شهد الثلث الأخير من القرن العشرين العديد من الطرابيش ذات الشهرة العظيمة، منها الأبيض، المهاني، العظمة، البكري، الحسيني، السبيعي، وغيرها.¹³

Fez (Turkcha : fes, ko'pligi fezzes yoki fezes arablardagi uning bir xil ko'rinishi torbuush “ طربوش “ Misr talaffuzida esa “tarbush “ tarzida jaranglaydi. Bu bosh kiyim sifatida ma'lum bo'lib, hozirda uning ikkita turi mavjud: 1- aylana shakilda qizg'sh matodan tayyorlanib, asosan, turli tolalardan iborat bo'ladi va uning yuqori qismiga osilib turadigan tuguncha qadab qoyiladi. Arabcha tarbush so'zining asl kelib chiqishi grekchaka borib taqaladi va uning hozirgi ko'rinishiga kelishi va ommaviy tarzda yoyilishi esa sulton Mahmud II ga borib taqaladi, ya'ni uning ushbu bosh kiyimini rasmiy kiyim sifatida joriy etishiga sabab bo'ladi. Fez so'zi esa 17 asrlarda andaluziyaliklar tomonidan Morakash, Fez shaxarlarida mashhur ommaviy so'zga aylanib brogan.1826 yilda Sulton Mahmud II

¹²Nabeel Y. Abraham. "Arab Americans," Encarta Encyclopedia.Cambridge., 2007. pp. 15–16.

¹³Ilova 5.

g'arbliklarning kiyimlaridan ta'sirlangan holda uning o'zida ham shunga o'xshash g'arbcha uslubdagi bosh kiyimini joriy etadi. Dastlab u harbiy yurishlarda majburiy etib belgilangan keyinchalik 1829 yilda barcha mamlakat aholisiga rasmiy bosh kiyimi sifatida belgilab qo'ygan. Va eng qizig'i u o'sha paytda sallani taqiqlab qo'ygan. Va ushbu bosh kiyimi yaqin sharq mamlakatlarida zamonaviylik ramzi sifatida namoyon bo'ldi.

العمامة لباس رأس منتشر في كثير من دول وشعوب العالم تختلف أنواعه وألوانه وأشكاله من مكان إلى آخر كما يختلف المغزى من لبسه بين جزء من زي تقليدي شعبي وبين زي ديني أو مذهبي وبين الموضة الصرفة. يشتهر الشيخ بلبس العمامة المميزة والكبيرة نسبيا والتي يتجاوز طول القماش المكون لها الـ 5 أمتار وصولا إلى 7 أمتار ويشتهر الطوارق بلبس العمامة وهي إحدى العلامات المميزة لهم، وقد ارتدى العرب العمامة أيضا، ولم يبق منهم اليوم من يرتديها إلا سكان سلطنة عمان واليمن والسودان وصعيد مصر وموريتانيا، وكان للنبي محمد نبي الإسلام أكثر من عمامة.

الأهمية الدينية حاليا:

فالعمامة عند الشيعة اليوم تنقسم إلى قسمين العمامة البيضاء ويرتديها عموم رجال الدين أو طلاب الحوزة العلمية والعمامة سوداء يرتديها رجال الدين وطلاب العلم من الذين يرجع نسبهم إلى علي بن أبي طالب.

أما العمامة عند أهل السنة والجماعة اليوم فيرتديها علماء الأزهر الشريف وهي عبارة عن طربوش أحمر يلف حوله قماش أبيض.¹⁴

